



Po'lat o'tda toblanadi, odam mehnatda

Metallurg inbari



O'zbekiston metallurgiya kombinati aksiyadorlik
jamiyatining ko'p nusxali gazetasi

2024-yil 28-oktabr № 10 (1544)
Gazeta 1992-yil 7-martdan nashr etilmoqda

"O'ZBEKISTON METALLURGIYA KOMBINATI" AKSIYADORLIK JAMIYATI

YANGI BOSHQARUV RAISI – BOSH DIREKTOR TAYINLANDI

2024-yil 12-oktabr kuni "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi raisi, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri Abdulla Aripov raisligida korxona rahbarlari va bosh mutaxassislari ishtirokida kengaytirilgan yig'ilish bo'lib o'tdi.



shakllangan. Ular har qanday vazifalarini sharaf bilan bajarishlariga ishonchim komil.

Jonajon kombinatimizda ishslash men uchun faqat quvонch keltirdi. Shu bois, men o'zimni baxtli inson, deb bilaman. Chunki mehnat faoliyatimni shu korxonada, malakali mutaxassislar, o'z sohasining ustalari orasida o'tkazdim. Kombinatimizga, metallurglar jamoasi-



bo'lgan Dilshod Ahmedov "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – bosh direktori etib tayinlanganligi e'lon qilindi.

D. Axmedov I. Gubkin nomidagi Rossiya davlat neft va gaz universiteti va Moskva "Skolkovo" boshqaruv makkabini tamomlagan. 2021-yil yanvar oyidan boshlab D. Axmedov "O'zmetkombinat" AJ boshqaruv raisining birinchi o'rinnbosari – ijrochi direktor lavozimida kombinat tarraqiyotiga katta hissa qo'shib keldi. 2024-yil yanvar oyidan buyon O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining o'rinnbosari, jumladan, "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi raisining o'rinnbosari sifatida kombinatning faol taraqqiyot jarayonlarini nazorat qilib kelgan.

Yaqin orada Ahmedovning tayinlanishi "O'zmetkombinat" AJ Kuzatuv kengashi va aksiyadorlari tomonidan ham tasdiqlanishi kutilmoqda.



tantanali ravishda zarhal chopon, do'ppi kiydirilib, gullar taqdirm etildi.

Bosh vazir o'z nutqida Rashid Pirmatov rahbarligida "O'zmetkombinat" AJda keng ko'lamli islohotlar muvaffaqiyatlari amalga oshirilib, qator yutuqlarga erishilgallagini ta'kidlab o'tdi.

R. Pirmatov barchaga hurmat va e'tibor uchun minnatdorchilik bildirib shunday dedi:

– Vaqt shiddat bilan o'tib, jonajon jamoa bilan xayrplashish vaqt keldi. Albatta, bu har bir inson hayotida biroz qayg'uli bosqich. Lekin men "O'zmetkombinat" AJ, metallurglar jamoasidan, uning kelajagidan xotirjamman. Chunki korxonamizda har bir topshirilgan vazifaga katta mas'uliyat bilan yondoshib, sidqidildan samarali mehnat qiladigan jamoa

Yig'ilishda 2021-yildan buyon kombinatga rahbarlik qilib kelayotgan "O'zmetkombinat" AJ Boshqaruv raisi – bosh direktor Rashid Pirmatov tantanali ravishda pen-siyaga kuzatildi.

Kombinatdagi ko'p yillik samarali mehnati uchun minnatdorlik belgisi sifatida unga

ga hamisha yangidan yangi muvaffaqiyatlar yor bo'lsin!

2021-yildan buyon kombinatda Boshqaruv raisi – bosh direktor lavozimida ishlangan R. Pirmatov Moskva po'lat va qotishmalar institutini tamomlaganidan so'ng 1986-yildan buyon kombinatda turli lavozimlarda ishlab kelgan. Falsafa fanlari doktori (PhD) Kombinatdagi yutuqlari, mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini oshirishga qo'shgan ulkan hissasi uchun 2014-yilda "O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan sanoat xodimi" unvoni, 2023-yilda "Mehnat shuhrati" ordeni bilan mukofotlangan. 2014-2019-yillarda O'zbekiston Oliy Majlisiga senati a'zosi bo'lgan.

Yig'ilishda O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vaziri o'rinnbosari lavozimida ishlab kelgan, bekobodlik metallurglar jamoasiga yaxshi tanish

BUGUNGI SONDA

**KASABA
UYUSHMALARI**

"El aziz, inson aziz"

TIBBIYOT

Dardga darmon
shifokorlar

3

OGOHLIKKA DA'VAT

Ehtiyyot bo'ling,
is gazi!

4

FAXRIMIZ

O'z davrining
mashhur po'lat
erituvchisi

5

ACHCHIQ, AMMO OCHIQ GAPLAR

So'nggi pushaymon
o'zingga dushman

8

SO'RAGAN EDINGIZ

Ish haqi
saqlanadimi?

9

SALOMATLIK

Sovuqda qaysi
kasalliklar avj oladi?

10

TAFAKKUR QIL

Qaytar dunyo, bu...

12

11-NOYABR – O'ZBEKISTON KASABA UYUSHMALARI KUNI

"EL AZIZ, INSON AZIZ"

Bugungi kunda mamlakatimizda erkin va farovon hayot, demokratik jamiyat qurish yo'lida olib borilayotgan izchil islohotlarda va ularning amaliy natijalarini ta'minlashda kasaba uyushmalarining ham munosib hissasi bor. O'zbekiston kasaba uyushmalarini faoliyati davomida yuksalish va pasayish davrlari ham yuz bergan, lekin bu tashkilot hech qachon o'z dolzarbligini yo'qotmagan.

Mamlakatimiz kasaba uyushmalarini eng yirik ja-moat tashkiloti hisoblanadi. Uning a'zolari soni do-imiy tarzda ko'payib bormoqda.

Shuning uchun ham har yili 11-noyabr – O'zbekiston kasaba uyushmalarini kuni yurtimizning barcha ishchi-xodimlari tomonidan muhim sana sifatida keng nishonlanib kelinmoqda.

O'zbekiston kasaba uyushmalarini kunining belgilanishi, eng avvalo, kasaba uyushmalarini tashkilotlarini ma'nnavi qo'llab-quvvatlash, ularning yanada samarali faoliyat yuritishini ta'minlash, tashkilot fidoyi xodimlarini rag'bat-lantirishga xizmat qiladi. Bu bilan mehnatkashlar huquqlari himoya qilinishi ustidan jamoatchilik nazorati ta'sirchanligini oshirish kutilmoxda.

O'z oldiga qo'ygan ulkan va ezgu vazifalarni amalga oshirish, "El aziz, inson aziz" degan olijanob g'oyani yurtimizdagini har bir korxona va tashkilotda qaror top tirish, mehnatni farovonlik va baxt manbaiga aylantirish ko'p jihatdan kasaba uyushmalarining samarali faoliyatiga ham bog'liqdir.

"O'zmetkombinat" AJ kasaba uyushmasi qo'mitasi o'z a'zolari bo'lgan ishchi-xodimlarning huquqlarini kombinat boshqaruvi bilan tuzilgan Jamoa shartnomasiga ko'ra O'zbekiston Respublikasi

Konstitutsiyasi, Mehnat kodeksi va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarga muvofiq himoya qilib kelmoqda.

Shuningdek, kombinat ishchi-xodimlari va ish beruvchi o'rtasidagi mehnat, ijtimoiy-iqtisodiy, kasbiy va tashkiliy munosabatlarni tartibga soluvchi lokal me'yoriy-hujjatlar asosida ham faoliyat yuritmoqda.

Kombinat Birlashgan kasaba uyushmasi qo'mitasining ixtiyoriga sog'lomlashirish, dam olishni tashkil qilish va madaniy hamda sport tadbirlarini

o'tkazish uchun ijtimoiy soha obektlari topshirilgan. Jumladan, "Metallurg" pansionati, Metallurglar madaniyat saroyi va "Metallurg" mehmonxonasi, metallurglar sport-sog'lomlashirish majmuasiga qo'mita boshchilik qiladi. Shuningdek, kombinat kasaba uyushmasi qo'mitasi yoz mavsumida Sirdaryo bo'yida joylashgan "Sohil" bolalar sog'lomlashirish oromgohida metallurglar farzandlarining maroqli dam olishlarini ham tashkil etib kelmoqda. Shuningdek, qo'mita tomonidan ishchi-xodimlarning dam olish kunlari ko'ngilochar tadbirlarga borib kelishlari ham ta'minlanadi.

Metallurglarning huquq va erkinliklarini, ularning qonuniy manfaatlarini ta'minlash, mehnat jamoalari a'zolarini ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash ishlarida faol qatnashayotgan kasaba uyushma qo'mitasi xodimlarini, a'zolarini kelayogan kasaba uyushmalarini kuni bilan tabriklaymiz.

Barchalariga mustahkam sog'lik, oilalariga fayz-u baraka, mas'uliyatlari faoliyatlarida ulkan muvaffaqiyatlar tilaymiz.

Inomjon HAYITOVA.

**INSON UCHUN E'TIBOR VA G'AMXO'RLIK JUDA MUHIM**

Kasaba uyushma qo'mitasi kombinat ishchi-xodimlari faoliyatining ajralmas qismiga aylangan. Zero, bizning huquqlarimizni himoya qiladigan, kombinat ishchi-xodimlarining xavfsiz mehnat sharoitlarda ishlashini, munosib maosh olishini ta'minlovchi, dam olish va salomatliklarini mustahkamlashga sharoitlar qilib beradigan aynan shu tashkilotdir.

Kombinat ishchi-xodimlari kasaba uyushmasi qo'mitasining imtiyozli yo'llanmalari hisobidan O'zbekistondagi sanatoriylarda dam olishlari va sog'lig'ini mustahkamlashlari mumkin. "Metallurg" pansionatida hordiq chiqqarganlar kasaba uyushmasi borligidan, uning g'amxo'rliklaridan mammun bo'lishadi.

Ko'pchilik kasabaqo'm tashkil etgan Toshkent shahar drama teatri spektakllarida, taniqli san'atkorlarning konsertlarida bo'lishgan. Ular bu tomoshalardan katta zavq olib keladilar. Bu tadbirlar ularning kuchiga kuch, g'ayratiga g'ayrat qo'shishiga shubha yo'q.

Kasabaqo'm tomonidan Navro'zda Respub-

likamizning turli hududlarining milliy urf-odatlar, an'analari namoyish etilgan ajoyib bayram uyuşhtirilganligini hamon zavqlanib yodga olamiz.

Har bayramda kombinat boshqaruvi kasaba uyushma qo'mitasi bilan hamkorlikda faxriylar, nogironlar va kam ta'minlangan oilalar uchun beg'araz yordam ko'rsatadi. Ularga g'amxo'rlik qiladi. Qorbobo, Qorqiz va ertak qahramonlari ishtirotida katta archa atrofida o'tkaziladigan tomoshalar, ayniqsa, bolajonlarga zavq-shavq ularashdi. "Mehribonlik" uyidagilar va maktab-internat o'quvchilari Qorbobo va Qorqizni xursand-chilik bilan kutib olishadi. Oddiy odamlar uchun ko'rsatilayotgan bunday e'tibor va g'amxo'rlik juda muhimdir.

Men tarkibiy bo'linmalarda kasaba uyushmalarida jamoatchilik asosida ishlaganman. Shunga ko'p bor amin bo'ldimki, ishda janjal, og'ir moddiy qiyinchiliklar, oilada baxtsizlik bo'lsa ishchi-xodimlar kombinatda asosan kasaba uyushmasi qo'mitasiga murojaat qiladilar. Nega? Chunki

bu tashkilotdan amaliy yordam olish mumkin. Mening o'zim ham shunday vaziyatlarda kasaba uyushma qo'mitasidan yordam so'raganman va ko'mak olganman. Ehhe qanchadan qancha muammolar kasaba uyushma qo'mitasi ishtirotida hal etiladi. Ularga rahmat.

Metallurglarning huquq va manfaatlari ni himoya qilishdek asosiy vazifani hal etisha da kasaba uyushma qo'mitasi barcha qonuniy usullardan foydalanib keladi. Keling, bir eslaylik – 2017-yilda yubileyalar uchun xodimlarga beriladigan nafaqalar bekor qilingan edi. Tabiiyki, metallurglar norozi bo'lishdi. Kasaba uyushmasi qo'mitasining aralashuvini bilan yana bu masala Jamoa shartnomasiga qaytadan kiritildi. Natijada endilikda ishchilar ko'p yillik mehnatlari uchun yubileylari munosabati bilan yana mukofot olishmoqda.

Yana bir misol, birinchi farzand tug'ilishi munosabati bilan kombinat xodimiga beriladigan mablag' to'lab berilishi bekor qilingan edi. Ammo kasaba uyushmasi qo'mitasining sa'y-harakatlari bilan yosh metallurglar yana avvalgidek bir martalik rag'batlantirish imtiyozidan foydalanadigan bo'ldilar.

Kasaba uyushma qo'mitasining a'zolarining mehnatga oid huquq va manfaatlari ni ta'minlash, mehnat jamoalarida xodimlarni ijtimoiy-iqtisodiy qo'llab-quvvatlash maqsadida olib borayotgan ishlari ga muvaffaqiyatlar yor bo'lsin. Mana shunday faoliyat ko'rsatayotgan kasaba uyushmalaridan minnat-dormiz.

Elmira ACHKELYAMOVA.



Mamlakatimizda 27-oktabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va xalq deputatlari viloyat, tuman, shahar Ken-gashlariga bo'lib o'tgan saylovlari O'zbekistonda barcha sohalarda, jumladan, siyosiy-huquqiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy yo'naliishlarda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli, jadal islohotlarning uzviy qismidir.

DEMOKRATIK TAMOYILLAR ASOSIDA BO'LIB O'TDI

Saylov xalqaro me'yorlar va standartlarga hamda milliy saylov qonunchiligidan, unda belgilangan ochiqlik, oshkoraliq va adolat kabi demokratik prinsiplarga to'la mos holda, ko'tarinki ruhda o'tdi.

Bu yil yangilangan Konstitutsiya va milliy saylov qonunchiligiga binoan mamlakatimiz tarixida ilk bor parlament saylovi aralash – majoritar va proportional saylov tizimi asosida tashkil etildi. Ertalabdan yurtimizning barcha hududida parlament va mahalliy Kengash deputatlari saylovi faoliyat bilan boshlanib, 11 ming 28 ta saylov uchastkalarida fuqarolar o'z fuqarolik burchini amalgalashdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 40 ta xorijiy davlatdagi diplomatik va konsullik muassasalari huzuridagi 57 ta saylov uchastkasida xorijagi vatandoshlarimiz saylash huquqidan foydalandi.

Joriy yilgi saylovda Saylov jarayonini boshqarishning avtomatlashgan tizimidagi saylovchilarining elektron ro'yxatiga mamlakatimizdagi 19 million 944 ming 859 nafar saylovchi kiritilgan. Bundan tashqari, chet ellardagi saylovchilarimiz 165 ming 631 nafarni tashkil etdi.

Yurtimizda yangi tizim asosida bo'lib o'tgan saylovni kuzatishda 850 dan ortiq xorijiy va xalqaro kuzatuvchi ishtirok etdi. Shuningdek, siyosiy partiyalardan 55 ming nafar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan 10 ming nafardan ziyod kuzatuvchi saylovni bevosita kuzatib bordi.



DEMOKRATIK TAMOYILLAR ASOSIDA BO'LIB O'TDI

Saylov xalqaro me'yorlar va standartlarga hamda milliy saylov qonunchiligidan, unda belgilangan ochiqlik, oshkoraliq va adolat kabi demokratik prinsiplarga to'la mos holda, ko'tarinki ruhda o'tdi.

Bu yil yangilangan Konstitutsiya va milliy saylov qonunchiligiga binoan mamlakatimiz tarixida ilk bor parlament saylovi aralash – majoritar va proportional saylov tizimi asosida tashkil etildi. Ertalabdan yurtimizning barcha hududida parlament va mahalliy Kengash deputatlari saylovi faoliyat bilan boshlanib, 11 ming 28 ta saylov uchastkalarida fuqarolar o'z fuqarolik burchini amalgalashdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 40 ta xorijiy davlatdagi diplomatik va konsullik muassasalari huzuridagi 57 ta saylov uchastkasida xorijagi vatandoshlarimiz saylash huquqidan foydalandi.

Joriy yilgi saylovda Saylov jarayonini boshqarishning avtomatlashgan tizimidagi saylovchilarining elektron ro'yxatiga mamlakatimizdagi 19 million 944 ming 859 nafar saylovchi kiritilgan. Bundan tashqari, chet ellardagi saylovchilarimiz 165 ming 631 nafarni tashkil etdi.

Yurtimizda yangi tizim asosida bo'lib o'tgan saylovni kuzatishda 850 dan ortiq xorijiy va xalqaro kuzatuvchi ishtirok etdi. Shuningdek, siyosiy partiyalardan 55 ming nafar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan 10 ming nafardan ziyod kuzatuvchi saylovni bevosita kuzatib bordi.

18-NOYABR - O'ZBEKISTON DAVLAT BAYROG'I QABUL QILINGAN KUN

XALQNI BIRLASHTIRUVCHI KUCH

1991-yil 18-novabr xalqimiz yodida o'chmas va qutlug' sana bo'lib qoldi. Shu kuni "O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'i to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Davlatimiz bayrog'i boshqa ramzlar bilan birga xalqimizning shon-sharafi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassam etib, shu yurtda yashovchi har bir fuqaroga g'urur, faxr va iftixon bag'ishlaydi. Bayrog'imizga nazar solganimizda yoki madhiyamiz yangraganda biz ruhan jo'shinqinlikni, azmu shioqatimiz oshganini, qalbimizda g'urur va buyuk istiqbolga ishonch tuyg'usini his etamiz.

O'zbekiston Respublikasining Davlat bayrog'ining butun uzunligi bo'ylab o'tgan to'q moviy rang, oq rang va to'q yashil rangli uchta endan tarkib topgan to'g'ri to'rt burchak shaklidagi matodir. O'zbekiston Respublikasi Davlat bayrog'ining uzunligi 250 santimetrga, kengligi 125 santimetrga teng. Moviy rang, oq rang va yashil rangli enlarning kengligi bir xil. Har bir en 40 santimetrga tengdir. O'zbekiston Respublikasi bayrog'ining oq rangli enning chetlaridan kengligi 2,5 santimetrga teng qizil hoshiyalar o'tkazilgan.

Davlat bayrog'i va uning ramzi bugungi O'zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo'lgan davlatlar bilan tarixan bog'liqligini anglatadi hamda Respublikaning milliy-madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi.

Bayroqdagi moviy rang tiriklik mazmuni aks etgan mangu osmon va obihayot ramzi. Timsollar tilida bu – yaxshilikni, donishmandlikni, halollikni, shon-shuhurat va sadoqatni bildiradi. Bayroqdagi oq rang – muqaddas tinchlik ramzi bo'lib, u kun charog'onligi va koinot yoritqichlari bilan uyg'unlashib ketadi. Oq rang – poklik, beg'uborlik, soflikni, orzu va xayollar tozaligi, ichki go'zallikka intilishning timsoli. Yashil rang – tabiatning yangilanish ramzi. U ko'pgina xalqlarda navqironlik, umid va shodusmonlik timsoli hisoblanadi.

Qizil chiziqlar – vujudimizda jo'shib oqayotgan hayotiy qudrat irmoqlarini anglatadi. Navqiron yarim oy tasviri tarixiy an'analarimiz bilan bog'liq. Ayni paytda u qo'liga kiritilgan mustaqilligimiz ramzi ham. O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ida



gi 12 yulduz tasviri tarixiy an'analarimiz, qadimgi yil nomamizga bevosita aloqador. Bizning o'n ikki yulduzga bo'lgan e'tibori mlz O'zbekiston sarhadidagi qadimgi davlatlar ilmiy tafakkurida nujum ilmi taraqqiy etganligi bilan ham izohlanadi.

Mamlakatimiz a'zolari qatnashyotgan xalqaro miqyosdagi siyosiy, madaniy-ma'rifiy tadbirdorda, olimpiada o'yinlaridan tortib boshqa nufuzli sport musobaqalari da ham bayrog'imiz Vatanimizning sha'ni, xalqimizning g'ururini yorqin aks ettirmoqda. Masalan, xalqaro sport bellashuvlarida g'alaba qozongan sportchilarimiz sharafiga yurtimiz bayrog'i baland ko'tarilib madhiyamiz yangragan lahzalarda har birimiz cheksiz hayaonga tushamiz, hech kimdan kam emasligimizdan g'ururlanamiz.

Davlatimiz bayrog'i tinch va osoyishta, ozod hamda erkin hayotimiz, yorug' kelajagimizga bo'lgan ishonchimiz timsolidir.

Davlat ramzlarining muqaddasligini, ular bizga yurt manfaati har narsadan ustunligini anglatib, eslatib turishini har birimiz, ayniqsa, yosh avlod yodda tutishi maqsadga muvofiqdir.

10-NOYABR - TIBBIYOT XODIMLARI KUNI

DARDGA DARMON SHIFOKORLAR

Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida bosh mezon etib belgilangan "Inson qadri uchun" degan tamoyil har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoitini yaratishni nazarda tutadi. Shu jumladan, insonlarga munosib turmush sharoitini yaratishda sog'liqni saqlash tizimi ham alohida ahamiyat kasb etadi. O'tgan davr mobaynida yurtimizda sog'liqni saqlash tizimini yangi rivojlanish bosqichiga olib chiqish borasida ulkan islohotlar hamda keng ko'lamli ishlar amalgalashdi.

Ayni shu maqsadda keyingi yillarda O'zbekiston sog'liqni saqlash tizimi tubdan isloh qilinmoqda. Sohaning moddiy-teknik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlamoqda. Tizimga ilg'or davolash va diagnostika usullari, innovatsion texnologiyalar keng tatbiq etilmoqda.

Sohaga davlat tibbiy sug'urtasi va raqamlashtirish mexanizmlari bilan birga xususiy tibbiyot muassasalari faoliyati ham keng joriy etilmoqda. Shifoxonalarni zamonaqiy transport va tibbiy jihozlar bilan ta'minlash darajasi keskin yaxshilanmoqda.

Aynan ana shunday o'zgarishlar, jonkuyar shifokorlar, yuqori malakali tibbiyot mutaxassislari, hamshiralarning mashaqqatli mehnati tufayli yuqori texnologik jarrohlik operatsiyalari nafaqat poytaxtimiz va viloyatlar markazlarida, balki tumanlarda, Bekobod shahrida ham muvaffaqiyatlari o'tkazilmoqda va minglab bemorlar o'zdardiga shifo topmoqda.

Albatta, inson manfaatlarini ta'minlash, fuqarolarimiz salomatligini mustahkamlash, ularning hayotdan, bugungi davr islohotlaridan rozi bo'lib yashashi yo'lida sohada amalgalashdi. Ularning bu boradagi sa'y-harakatlari jamiyatimizda sog'gom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy xizmat sifatini yanada oshirish, inson



"O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyati ischi-xodimlari sog'liklarini tiklash va mustahkamlashda "Metallurg" shahar shifoxonasi, poliklinikasi, shahrimizdagi sanatoriyl-profilaktoriy, bo'linmalarda faoliyat ko'rsatayotgan tibbiyot punktlarida keng hajmdagi ishlar olib boriladi. Bu shifo maskanlari kerakli tibbiyot texnikalari bilan jihozlangan bo'lib, ular yanada takomillashtirilib borilayapti.

Ular tomonidan profilaktika tadbirdari va metallurglar salomatligini mustahkamlash yo'lida faol ishb olib borilmoqda.

Ularning bu boradagi sa'y-harakatlari jamiyatimizda sog'gom turmush tarzini shakllantirish, tibbiy xizmat sifatini yanada oshirish, inson



manfaatlarini mustahkamlash va el salomatligini muhofazalashga xizmat qilayotir.

Aziz shifokorlar! Sizlarni kelayotgan kasb bayramlaringiz bilan tabriklaymiz.

Kelgusi faoliyattingizda ulkan muvaffaqiyatlar, oilaviy baxt-saodat, xonadonlaringizga qut-baraka tilaymiz.

Hasanboy SHOKIROV.

**MANFAATLAR
TO'QNASHUVI:****TARAQQIYOT TO'SIG'I**

Jamiyatga katta zarar keltiradigan illatlardan biri – manfaatlar to'qnashuvi. U bor joyda sohalar rivojlanish o'rniqa, orqaga ketadi, adolatsizlik bo'ladi, o'zaro ishonch so'nadi, mutaxassislar salohiyati ro'yobga chiqmaydi.

Manfaatlar to'qnashuvi bu shaxsning bevosita yoki bilvosita shaxsiy manfaati mansab, xizmat majburiyatlarini ob'ektiv va xolis bajarishiga ta'sir ko'rsatuvchi yoki shunday ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan vaziyat hamdir. O'z vaqtida bunga qarshi keskin kurashilsa, ya'ni manfaatlar to'qnashuviga chek qo'yilsa, korrupsiya barham topadi, ish faoliyatida o'zgarish, rivojlanish bo'ladi.

Joriy yil 5-iyun kuni Prezidentimiz tomonidan "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"gi qonun imzolandi. Bu qonun bilan manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash, oldini olish va tartibga solishning aniq tartibi belgilandi. Uning davlat va jamiyat rivoji uchun ahamiyati yuqori.

Qonunning asosiy g'oyasi jamiyat va davlat manfaatlari shaxsiy manfaatlardan ustun ekanini bilan xarakterli. Asosiy maqsad mansabdor shaxslarning noqonuniy daromad olishining oldini olish va manfaatlar to'qnashuvini bartaraft etishdan iboratdir.

O'z mohiyatiga ko'ra, "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida" qonun korrupsiyaga qarshi kurash siyosatining asosi bo'lib, davlat xizmatining halol, shaffof, hisobdor va samarali ta'minlanishining asosiy vositalaridan biri hisoblanadi.

Manfaatlar to'qnashuvi tushunchasiga aniq ta'rif berilgan bo'lib, unga ko'ra, manfaatlar to'qnashuvi davlat tashkiloti xodimining, uning yaqin qarindoshlarining va unga aloqador shaxslarning shaxsiy manfaatlari bilan fuqarolarning, tashkilotning yoki davlatning huquqlari va qonuniy manfaatlari o'rtasida qarama-qarshilik yuzaga kelgan va kelayotgan yoxud yuzaga keli-

shi mumkin bo'lgan vaziyatdir.

Qonun davlat organi xizmatchisi o'z xizmat majburiyatlarini vijdonan bajarish, manfaatlar to'qnashuviga olib keladigan yoki olib kelishi mumkin bo'lgan shaxsiy manfaatdorlikka yo'l qo'ymaslik, o'zida yoki boshqa xodimlarda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi holatlarining oldini olishda majburiyatlar yuklaydi.

Davlat organining yoki boshqa tashkilotning mansabdor shaxsi yoki xodimi tomonidan manfaatlar to'qnashuvi to'qnashuvi mavjudligi haqida xabar bermaslik uchun qonunda ma'muriy javobgarlik nazarda tutilgan. Shuningdek, mavjud yoki ehtimoliy manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish yuzasidan choralar ko'rmaslik ham javobgarlikka sabab bo'ladi.

Qonunning yana bir tomoni, endilikda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yilganligi sababli davlat tashkilotiga moliyaviy-iqtisodiy zarar yetsa, ushbu zararni manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yan insonning o'zi qoplaydi.

Mazkur qonunning qabul qilinishi davlat idoralarida korruptsiyaviy omillarning kamayishiga, davlat tashkilotlarida manfaatlar to'qnashuvining oldini olishga xizmat qiladi. Bunday holatlarni aniqlash va tartibga solishning samarali mexanizmlarini joriy etish, uning huquqiy oqibatlarini aniq belgilash, davlat xizmatida tanish - bilishchilik, qarindosh - urug'chilikning oldini olishga zamin yaratadi.

Biz – "O'zmetkombinat" AJ jamoasi ham manfaatlar to'qnashuvi va korruptsiyaga qarshi hamkorlikda murosasiz kurashishimiz shart. Bu har

**Manfaatlar to'qnashuvi**

Xodim ishlaydigan davlat tashkilotining manfaatlari

Xodimning shaxsiy va qarindoshlik manfaatlari

birimizning burchimizdir.

Bir sohada ishlayotgan hamkasblarimizning o'z foydasini o'ylab, kombinatimizga zarar keltirishiga befarq bo'lmaylik. Befarqlik, nafaqat kombinatimizga balki, kasbdoshimizning kelajagi, uning oilasiga, farzandlariga ham o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Kombinatning har bir rahbar va xodimi o'z lavozim majburiyatlarini, xizmat vakolatlari ni sidqidildan halol bajarishi, shaxsiy manfaatlari bilan bog'liq har qanday harakatlarga aralashmasligi kerak. Aksincha bunday holatlar haqida xabar topganlar "Manfaatlar to'qnashuvi to'g'risida"agi qonunda belgilanganidek o'ziga ma'lum bo'lgan manfaatlar to'qnashuvi hollari to'g'risida xabar berishi zarur.

Biz xalqimiz, oilamiz bilan kuchli taraqqiy etgan davlatda, farovon hayotda yashashni xohlar ekanmiz, korruptsianing asosi bo'lgan manfaatlar to'qnashuviga birgalikda qarshi kurashishimi darkor.

To'lqin XOJIYEV,

"O'zmetkombinat" AJ Korporativ xavfsizlik va resurslarni himoya qilish departamenti direktori.

EHTIYOT BO'LING, IS GAZ!!**GAZ JIHOZLARIDAN FOYDALANISHGA RIOYA QILING!****Hurmatli metallurglar!**

Qish fasli yaqinlashishi bilan aholining gazga bo'lgan ehtiyoji keskin oshadi. Gaz jihozlaridan foydalanganda xavfsizlik qoidalariga qa'tiy rioxalish etishlaringizni so'raymiz.

Xonadoningizni gaz bilan isitganingizda inson hayoti uchun zarur bo'lgan kislorod yоqilib xavfli is gazi ajrab chiqishiga sabab bo'ladi. Bu gaz inson organizmini zaharlaydi. Xona havosi tarkibida 1 foiz is gazi bo'lganda zaharlanish uchun bir necha marta nafas olishning o'zi kifoya bo'ladi. Bunday havodan 2-3 daqiqa davomida nafas olgan inson gazdan zaharlanib hushini yo'qotishi mumkin.

O'zingiz, oila a'zolaringiz va yaqinlaringizning mulkini, sog'lig'i va hayotini asrash uchun quyidagi qoidalarga rioxalish qiling!



Shunday o'zboshimcha harakatlar yong'inga, portlashga, xavfli hollarga olib kelishi mumkin.

GAZ HIDINI SEZGANDA ZUDLIK BILAN QUYIDAGILARNI AMALGA OSHIRISH ZARUR:

- gaz plitalari va isitish pechlarini gaz tar-mog'idan o'chiring;
- darrov eshik va derazalarni ohib, xonani shamollating;
- xonada elektr jihozlarini yoqmang, yoniq bo'lsa o'chirmang, chunki bu yong'in yoki gaz-havo aralashmasining chaqnashiga sabab bo'lishi mumkin;
- gaz chiqayotgan joyni aniqlash uchun ochiq olovdan emas, sovun ko'pigidan foydalaning!

Javlon UMIRZOQOV,

"O'zmetkombinat" AJ OYOXTTEB inspektori, serjant.

ESDA TUTING! QUYIDAGILAR TAQIQLANADI:

- gaz jihozlarini qarovsiz qoldirish;
- gaz jihozlari turgan xonada uxlash va dam olish;
- o'zboshimchalik bilan uyni gazlashtirish, gaz jihozlarining o'rnini almashtirish va qo'shimcha o'rnatish;
- gaz jihozlari o'rnatilgan xonalar rejasini o'zgartirish;
- dudburon va shamollatish tizimlarini o'zgartirish. Shamollatish kanallarini to'sib qo'yish;
- gazdan va gaz asboblaridan boshqa maqsadlarda foydalish, gaz plitalaridan xonalarni isitish uchun foydalish;
- gaz sizib chiqishini aniqlash uchun olov yoqib tekshirish;
- rezina shlang orqali gaz jihozlarini ulash va ulardan foydalish;

- nostandard va nosoz gaz jihozlari o'rnatish va foydalish.

Tutun tortish dudburonlari sozligini tekshirmsandan isitish moslamalarini yoqish taqiqlandi. Bu kishilar zaharlanishi va yong'in chiqishga olib kelishi mumkin.

ISITISH ASBOBLARINI YOQISHDAN AVVAL QUYIDAGILARNI TEKSHIRISH ZARUR:

- gaz tarmoqlarini va o'chirish moslamalari ning zichligini;
- xavfsizlik avtomatikasi va dudburonlarning sozligini;
- dudburonda tortuvchi kuch borligini;
- isitish moslamalari va gorelkalarining sozligini;
- ko'p qavatli uylarning ayvonlariga gaz plitalarini chiqarib olish.

MASHHUR OLIM VA DAVLAT ARBOBI

Bu yil mamlakatimizda o'zbek xalqining buyuk qomusiy olimi, Temuriylar davlatining mashhur hukmdori Muhammad Tarag'ay Mirzo Ulug'bek tavalludining 630 yilligi keng nishonlanmoqda. Bu haqda Prezident qarori qabul qilingan. Buyuk ajdodimiz o'zining boy ilmiy-ma'rifiy merosi hamda mislsiz buniyodkorlik faoliyati bilan yurtimiz taraqqiyoti va jahon sivilizatsiyasi rivojiga beqiyos hissa qo'shgan ulkan tarixiy siymodir.

Mirzo Ulug'bek 1394-yil 22-mart kuni Amir Temuring to'rtinchı o'g'li Shohrux Mirzo oilasida dunyoga kelgan. 1411-yilda 17 yoshli Ulug'bek Movarounnahr va Turkistonning hokimi etib tayinlanadi. U yoshligida fan va san'at turlari ga, ayniqsa, matematika va astronomiyaga katta qiziqish bildiradi.

O'rta asrlarda ona zaminimizda yuzaga kelgan ikkinchi Uyg'onish davrining yorqin namoyandasini hisoblangan Mirzo Ulug'bek uzoq yillarda o'z sultanatini adolat va insonparvarlik g'oyalari asosida boshqarish va keng ko'lamli buniyodkorlik ishlarini amalga oshirish bilan birga ilm-fan, madaniyat va san'at sohalarini yuksaltirishga alohida e'tibor qaratdi. Ulug'bek davrida Samarqand ilm-fan o'choqlaridan biriga aylangan. U yerda 15-asrning birinchi yarmida Ulug'bekning atrofida o'z davrining eng ilg'or fikrli va ilmli kishilarini to'planadi.

Uning tashabbusi va homiyligi ostida ko'plab madrasalar, maktablar, kutubxonalar, masjidlar, karvonsaroyslar, ko'priklar hamda so'lim bog'lar barpo etildi. Natijada o'lkamiz har tomonlama taraqqiy etib, sharqdagi yirik madaniyat va ilm-fan diyoriga aylandi.

Mirzo Ulug'bek matematika, fizika, tarix,



me'morchilik sohalarida ulkan natijalarini qo'lga kiritdi. Buyuk alloma, ayniqsa, Samarqand shahridagi o'zi bunyod ettirgan rasadxonada amalga oshirgan keng qamrovli ilmiy tadqiqotlari, kashfiyotlari bilan jahon astronomiya fanining rivojida tub burilish yasadi. Ulug'vatandoshimizning ana shunday izlanishlari natijasida yuzaga kelgan "Ziji jadidi Ko'rragoniy" asari hozirgi paytda ham yulduzlar ilmi sohasida dunyodagi eng buyuk asarlardan biri sifatida e'tirof etilib, olimlar tomonidan katta qiziqish bilan o'rganilmoqda.

Bu asardan tashqari uning qalamiga mansub matematik asari "Bir daraja sinusini aniqlash haqida risola", astronomiyaga oid "Risolayi Ulug'bek" (yagona nusxasi Hindistonda, Aligarh universiteti kutubxonasida saqlanadi) va tarix-

ga doir "Tarixi arba' ulus" ("To'rt ulus tarixi") asaridir.

Ma'lumotlarga ko'ra, Ulug'bek tibbiyot va musiqaga ham qiziqqan. Jumladan, Alisher Navoiy "Majolis un-nafois" asarida uning she'rlaridan namunalar keltirib o'tgan.

Ulug'bek rasadxonasi – Samarqand shahrining eng diqqatga sazovor obidalaridan biri 1428-1429-yillarda Cho'ponota tepaligida ulkan silindr shaklida bunyod etilgan. Unda kattagina globusda iqlimlarning chegaralari, tog'lar, cho'llar, dengizlar va daryolar ko'rsatilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning "Boburnoma" asarida yozilishicha, balandligi 30, 4 metr dan iborat 3 qavatli bino qurilgan. Rasadxonada o'ndan ortiq turli astronomik qurilmalar va asboblar bo'lgan. Uning ichiga o'rnatilgan juda katta asbob yordamida Quyosh, Oy, sayyora va yulduzlar katta aniqlikda o'rganilgan. Shuningdek, ma'lumotlarga ko'ra rasadxonada kutubxona bo'lgan.

Mustaqillik yillarida Mirzo Ulug'bekning hayoti va faoliyatini har tomonlama o'rganish va ommalashtirish maqsadida ko'plab tadqiqotlar, mahalliy va xalqaro miqyosda ilmiy-amaliy anjumanlar muntazam o'tkazib kelinmoqda. Uning davrida bunyod etilgan me'moriy obidalarni asrab-avaylashga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Mirzo Ulug'bek ilmiy-ma'rifiy merosi mam-lakatimiz va xalqaro miqyosda o'rganilmoqda. Buyuk ajdodimiz asarlari yosh avlod intellektual va ma'nnaviy salohiyatini oshirish va shu asosda Yangi O'zbekistonning munosib buniyodkorlari etib tarbiyalashga xizmat qilmoqda.

Hasanboy SHOKIROV.

O'Z DAVRINING TANIQLI PO'LAT ERITUVCHISI

Mamajon Yodgorovning bir yoshligida - 1942-yilda otasi urushga ketib dom-daraksiz ketgan. U yolg'iz farzand sifatida onasining yaqin dastiyori bo'lgan. Shuning uchun ham yoshlikdan mehnatdan qochmaydigan, har qanday ishni do'ndirib tashlaydigan inson bo'lib voyaga yetgan. O'quvchilik davrida metallurgiya sohasiga qiziqib qolgan. Shuning uchun ham 1959-yil o'rta maktabni tugatganidan so'ng Bekobod kasb-hunar bilim yurtiga o'qishga kiradi. Oradan ikki yil o'tib o'qishni bitirganidan so'ng O'zbekiston metallurgiya zavodining Prokat sexiga - tunika ishlab chiqarish uchastkasiga ishga qabul qilinadi. Dastlab valsalovchi yordamchisi bo'lib ish boshlaydi.

- O'sha paytlarda Ismoil aka

Madaminov Prokat sexida usta bo'lgan, meni o'zining brigadasiga ishga chaqirib olgan edi. Bu kishi mening ustozim bo'lgan, - deb eslaydi Mamajon ota.

Ustozi uni Bekobod shahridagi og'ir sanoat texnikumining kechki bo'limiga o'qishga kirishga tavsiya etadi. Texnikumga o'qishga kirganidan so'ng ish vaqtini boshlanguncha yoki ishdan keyin darsga qatnab, ham o'qib, ham ishlaydi. 1966-yil po'lat erituvchi mutaxassisligi bo'yicha diplom oladi.

Ustozi "O'qishni bitirgan bo'lsang, po'lat erituvchilikka o'tasan" deb o'sha yillari Marten sexi boshlig'i bo'lgan Rixsivoy Yusupovning oldiga olib boradi. Shundan so'ng M. Yodgorov po'lat erituvchi yordamchisi bo'lib ish boshlagan. 1969-yildan boshlab esa mustaqil po'lat erituvchi bo'lib ko'p yillar mehnat qildi.

Chehrasidan nur, aql-zakovat taralib turgan, og'ir-vazmin, mulohazали bu otaxon o'zi haqida shunday deydi: "30 yil bekobodlik metallurglar jamoasida ishладим. Og'ir ishda o'ta yuqori haroratda ishlaganim uchun 1991-yil 50 yoshimda


pensiyyaga chiqdim. Pensiyadan keyin yana 4 yil - 1995-yilgacha zavodda ishладим. Shundan so'ng dehqonchilik bilan shug'ullandim".

Otaxon mehnatda erishgan yutuqlari uchun ikki marta - 1961 va 1982-yillarda ordenlar bilan mukofotlangan. O'sha davrining nufuzli markaziy organlari a'zosi, eng e'tiborli anjumanlar delegati bo'lgan.

- 1972-yilda Rossiyaning Cherepevskiy zavodida metall eritish tanlovida qatnashganimda "Men O'zbekistondan keldim, O'zbekistonda metall zavodi bor", - desam, ular hayron bo'lishib, "O'zbekiston querda", - deb so'rashgan. Allohga shukr mustaqilligimiz sharofati bilan yurtimizni butun dunyo tanidi, tan oldi, - deydi 84 yoshli otaxon.

M. Yodgorov 1978-yilda Ukrainianing Zaporoe zavodida metall eritish tanlovlarda ham qatnashgan. Bu tanlovlarda u zavodimiz sharafini munosib himoya qilgan.

- Men 1982-yil zavod tomonidan o'sha davrdagi mamlakatning eng zo'r yengil mashinasini bo'lgan "Volga" bilan mukofotlandim. Allohga shukur, halol mehnatim bilan hamma narsaga erishdim. Mening shu darajaga yetib kelishimda to'g'ri yo'l ko'rsatgan ustozim Ismoil aka Madaminovni ham hanuz hurmat



bilan eslayman. Shuningdek, yana Ravshan aka Ochilov, Bo'ron aka kabi sofdir, mehribon insonlarning maslahatlarini to'g'ri qabul qilib, mehnatda yaxshi natijalarga erishganman. Bu insonlar juda mehr-oqibatlari bo'lganliklarini, doimo yordam berganliklarini o'ylab, ular haqiga duolar qilaman. Bizning xalqimizdek mehr-oqibatlari, insof-diyonatli millat bo'lmasa kerak.

Endilikda Mamajon Yodgorov piru-badavlat otaxonlardan biri. Farzandlari, nabiralari, shogirdlari ardog'ida keksalik gashtini surib umrguzaronlik qilmoqda.

Xayriniso RASULOVA.



"KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI!"



"O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezident farmosi qabul qilindi.

Unga ko'ra, Konstitutsianing 32-yilligini munosib kutib olish va yuksak saviyada nishonlash uchun "Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy hamda ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar tashkil etiladi.

Shuningdek, Konstitutsiya kuniga bag'ishlangan bayram tadbirlariga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish dasturi hamda tashkiliy qo'mita tasdiqlandi.

Bayramni nishonlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi:

- yangilangan Konstitutsiya mazmun-mohiyati va "O'zbekiston – 2030" strategiyasining asosiy ustuvor yo'nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar haqida mahallalar, ta'lif va mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhabatlar o'tkazish;

- so'nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma'naviy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda yangi tahrirdagi Konstitutsianing o'rni va rolini yoritish;

- "Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi!" degan hayotiy shiorning mohiyati va ahamiyatini, yangi

tahrirdagi Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari sohasida mutlaqo yangi bosqichga o'tiganligini ochib berish;

- mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta'minlash, sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, san'at va sport sohalarini rivojlantirish, nuroniylar, xotin-qizlar va yoshlarga doimiy e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish, oila, onalik, bolalik va otalikni himoya qilish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyatini keng targ'ib qilish;

- "Konstitutsiya oyligi" doirasida umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va oliy ta'lif tashkilotlarida barcha o'quvchi va talabalarni qamrab olgan holda Konstitutsiya darslarini o'tkazish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 17-oktabr kuni mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatiga oid qonun hujjatlari o'zgartirishlarni imzoladi. O'zgartishlar Oliy Majlis Qonunchilik palasasi tomonidan 23-iyulda qabul qilindi va Senat tomonidan 20-sentabr kuni ma'qullandi. Ular o'tgan yili yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyaga muvofiq ishlab chiqilgan.

ASOSIY QOMUSIMIZGA MUVOFIQ ISHLAB CHIQILDI

Eng asosiy o'zgarishlardan biri – tuman (shahar, viloyat) hokimi va xalq deputatlari kengashi raisi lavozimlari bo'lindi. Hozirgi vaqtga qadar hokimlar tegishli hududda vakillik (kengash) va ijro etuvchi (hukumat) hokimiyatni bir vaqtning o'zida boshqargan, bu esa hokimiyatda qo'llab-quvvatlash va raqobat prinsipini buzgan.

Kengashlarga davlat organlari va tashkilotlarining mansabdar shaxslariga qonunlar, hududni rivojlantirish dasturlari va boshqa masalalar yuzasidan so'rovlar yuborish vakolati berildi.

Bundan tashqari, ular inson huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari tahdid solayotgan, hududning xavfsizligi va barqaror rivojlanishi asoslariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan fakt va voqealarni o'rganish maqsadida tekshiruvlar o'tkazishi mumkin.

Hokimlarga Kengashning qonunga zid qarorlarini bekor qilish uchun Senatga yoki sudga murojaat qilish huquqi berildi. Bundan oldin hokimlar qarorni qayta ko'rib chiqish to'g'risida kengashga taklif bilan murojaat qilishi kerak.

Bu o'zgarish viloyatlar va Toshkent shahar kengashlari hamda hokimlari uchun oktabr saylovidan keyin, tuman va shahar kengashlari hamda hokimlari uchun esa 2026-yil 1-yanvardan e'tiboran kuchga kiradi.

IJTIMOY HIMOYAGA MUHTOJ AHOLINING HIMOYASI KUCHAYTIRILADI

Prezident tomonidan imzolangan Qonun (O'RQ-977-son, 18.10.2024 y.) bilan ayrim qonun hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Qonun bilan ayrim qonunlarga Ijtimoiy himoya milliy agentligining zimmasiga dafn etish uchun nafaqani berish vazifasini yuklatishga, uning xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish sohasidagi vakolatlarini belgilashga, shuningdek fuqarolik ishlari bo'yicha sudlarga va ma'muriy sudlarga murojaat qilishda davlat bojini to'lashdan ozod etishga taalluqli o'zgartirishlar kiritildi.

Bundan tashqari, o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan 80 yoshga to'lgan keksalarga qarab

turilgan vaqt ish stajiga qo'shib hisoblanishi uchun davolash muassasasining xulosasi talab etilmasligi, shuningdek o'zgalar parvarishiga muhtoj bo'lgan yolg'iz keksalarga, yolg'iz yashovchi keksalarga va nogironligi bo'lgan shaxslarga shahar yo'lovchilar transportidan bepul foydalanish huquqi berilishi nazarda tutilgan.

Shu bilan birga, umrbod ta'minlash sharti bilan uyni (kvartirani) boshqa shaxsga berishga doir bitimlar va umrbod renta shartnomasi to'g'risidagi, shuningdek va siylikdagi shaxsning mol-mulkini taqsimlashga doir bitimlar hamda uning taqdirini hal qilishga qaratilgan boshqa bitimlar haqidagi ma'lumotlar "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga taqdim etilishi belgilandi.

O'ZBEKISTON IQTISODIYOTI ENG TEZ O'SAYOTGANLAR SAFIDA

Jahon banki 2024-yilda Yevropa va Markaziy Osiyo mintaqasida iqtisodiyoti eng tez o'sayotgan mamlakatlar Gurjiston, Tojikiston va O'zbekiston ekanini qayd etdi.

2025-yil bo'yicha prognozlar O'zbekiston yalpi ichki mahsulotning 5,8 foizga o'sishi orqali mintaqada iqtisodiy o'sish bo'yicha yetakchi o'ringa chiqib olishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

Masalan, Rossiyada iqtisodiy o'sish sur'atlarining 2024-yilda 3,2 foizgacha va 2025-yilda 1,6 foizgacha pasayishi kutilmoqda.

Mintaqaning Rossiyadan keyingi eng yirik iqtisodiyoti bo'lgan Turkiyada iqtisodiy o'sish 2023-yildagi 5,1 foizdan 2024-yilda 3,2 foizgacha sekinlashishi kutilmoqda.

Jahon bankining qayd etishicha, mintaqaga mamlakatlari yuqori darajadagi inflyatsiya, Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi oqibatlari va Yevropa Ittifoqida, mintaqaning asosiy eksport bozorida iqtisodiy faoliyat darajasining sekin o'sishi ortidan yuzaga kelgan so'nggi shoklarni muvaffaqiyatli yengib o'tdi.



YALPI ICHKI MAHSULOT HAJMI IKKI BARAVARGA OSHIRILISHI MUMKIN



Prezident yalpi ichki mahsulot hajmi 2030-yil yakunlariga ko'ra 160 milliard emas, 200 milliard dollarga, jon boshiga YAIMni esa 4000 emas, 5000 dollarga yetkazish imkoniyatlari borligini ta'kidladi, deya ma'lum qildi Respublika Iqtisodiyot va moliya vaziri o'rinosi Ilhom Norqulov.

Bu ko'rsatkichlarga erishish uchun O'zbekiston iqtisodiyoti keyingi 6-yilda

o'rtacha 10 foizdan o'sishi kerak. Inflyatsiya bo'yicha prognozlar ham qayta ko'rib chiqilgan.

"Prezidentimiz tomonidan davlat byudjeti taqchilligini 3 foizgacha tushirish, inflyatsiya darajasini 7 foizdan oshirmslik vazifasi qo'yildi. Inflyatsiya 2026-yilda 5-6 foiz darajasida saqlanishi va 2027-yildan boshlab 5 foiz va undan past bo'lishi kutilyapti", - deydi vazir o'rinosi.

2024-yil yakunlari bo'yicha YAIM hajmi 111 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

2030-yilga borib O'zbekiston 200 milliard dollarlik YAIMga ega bo'lish uchun YAIM yiliga taxminan 10,3 foizdan o'sishi kerak. Bu Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki kabi xalqaro tashkilotlarning yaqin yillar uchun eng optimistik kutilmalaridan ham ancha yuqori ko'rsatkich hisoblanadi.

MILLIY VA XALQARO HAMKORLIK

Toshkent shahridagi "O'zekspomarkaz" markaziy ko'rgazmalar majmuida "Tog'-kon ishi, metallurgiya va metallsozlik - Mining Metals Uzbekistan 2024" 18-xalqaro ko'rgazmasi bo'lib o'tdi. Bu xalqaro ko'rgazma butun dunyodan tog'-kon sanoati mutaxassislarini birlashtirgan, mustahkam milliy va xalqaro hamkorlikka yo'l ochadigan professional maydondir.

22-23-oktabr kunlari bo'lib o'tgan bu ko'rgazmada "O'zmetkombinat" AJ mutaxassislarini ham ishtirot etishdi. Ushbu tadbirda qatnashish yangi mahsulotlarni namoyish etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi va raqobatchilar salohiyatini baholash, investor va hamkorlar topish, hamkasblar bilan tajriba almashish imkonini beradi.

"Iteca Exhibitions" xalqaro ko'rgazmalar kompaniyasi va uning hamkori "ICAE urasia Group" tomonidan hamda Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi rasmiy ko'magida tashkil etilgan ushbu namoyishda 19 mamlakatdan 170 dan ortiq kompaniya ishtirot etdi.

Qayd etish kerakki, O'zbekistonning tog'-kon va metallurgiya sanoati mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega bo'lib, ko'plab sohalarni rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Tabiiy resurslarga boy bo'lgan zaminimiz mineral xomashyoni qazib olish va qayta ishlashni faol rivojlantirmoqda. Bunday imkoniyat nafaqat ichki ehtiyojlarni qondiradi, balki O'zbekistonning xalqaro bozorlardagi mavqeini sezilarli darajada

mustahkamlaydi.

Ko'p yillardan buyon "Mining Metals Uzbekistan" yuzlab ishtirotchi kompaniyalarni va minglab tashrif buyuruvchilarni - asbob-uskunalar ishlab chiqaruvchilari va yetkazib beruvchilarini, kon-metallurgiya xoldinglari, ilmiy doiralar va davlat idoralari vakillarini birlashtirib kelmoqda. Ushbu tadbirda ishtirot etish yangi mahsulotlarni namoyish etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning raqobatbardoshligi va raqobatchilar salohiyatini baholash, hamkorlar topish, tajriba almashish imkonini beradi.

O'tgan yillar davomida ko'rgazma O'zbekiston kon-metallurgiya majmuasi oldida turgan muammolarni hal etishda samarali biznes platforma ekanligini isbotladi.



"QADRING BALAND BO'LSIN, ONA TILIM!"

Til - davlat timsoli, mulki, ruhi, millatning madaniy va ma'naviy boyligi, xalqning madaniyati, urf-odati, uning turmush tarzi, tarixidir. Til bor ekan millat barhayot. Tilni mo'tabar zot - onaga qiyoslanishi bejiz emas, inson o'z onasini ko'rmasdan, uning sof muhabbatini, mehrini to'yemasdan yashay olmaydi.

Mamlakatimizda o'zbek tilining davlat tili sifatidagi o'rni va ahamiyatini oshirish, uni zamon talablari asosida rivojlantirish masalasiga milliy o'zlikni anglash, millat ruhini saqlab qolish, yorug' kelajagimizni ta'minlashning eng muhim omili, deb qaralmoqda. Shu ezgu maqsad yo'lidagi amaliy harakatlar tufayli jamiyatimiz hayotida davlat tilining q'llanish doirasi tobora kengayib, u xalq dilining chinakam ko'zgusiga aylanmoqda.

21-oktabr kuni O'zbek tili bayrami keng nishonlanishi ham ona tilimizga bo'lgan e'tiborning yorqin namunasidir. Joylarda O'zbek tili bayrami munosabati bilan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot tadbirlari o'tkazildi. Ana shunday tadbirdardan biri Metallurgular madaniyat saroyida bo'lib o'tdi.

"Qadring baland bo'lsin, ona tilim!" shiorida o'tkazilgan bu tadbirda "O'zmetkombinat" AJ rahbarlari, ishchi-xodimlar, harbiylar, yoshlar va jamoatchilik vakillari ishtirot etishdi. Rahbariyati tabrigidan so'ng Bekobod shahar ma'naviyat bo'limi boshlig'i Muhiddin Qo'ziboyev, Bekobod tumani hokimiining ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjaligiga rioya etilishini ta'minlash masalalari bo'yicha maslahatchisi Saida Suvonova, Respublika ijodkor yoshlarining "Barhayot Sohibqiron" mavzusida o'tkazilgan

ko'rik-tanlov sovrindori Munira Sulton kabi mehmonlar so'zga chiqib, ona tilimiz - milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'i ekanligi haqida so'zladilar.

Tadbirda O'zbek tili bayramiga bag'ishlab tashkil etilgan ko'rik-tanlov g'olib va sovrindorlari ham taqdirlandi. Dastlab tanlovning "Davlat tili ustuvorligi ta'minlangan eng namunalni tarkibiy bo'linma" yo'nalishidagi g'olib va sovrindorlar mukofotlanishdi. Unga ko'ra, 1-o'rin Ovqatlanish kombinatiga, 2-o'rin Temir yo'l xizmatiga va 3-o'rin Tajriba konstrukturlik laboratoriyasiga nasib etdi.

"Davlat tilida ish yuritish yo'lga qo'yilgan eng yaxshi tarkibiy bo'linma" yo'nalishi bo'yicha tanlovda 1-o'rinni Tog'-kon geologiya ishlari bo'limi, 2-o'rinni Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi bo'limi va 3-o'rinni Favqulodda vaziyatlar va radiatsiya xavfsizligi bo'limi qo'lga kiritishdi.

G'olib va sovrindorlarga diplom va pul mukofoti sertifikatlari tanta-nali ravishda topshirildi. Tanlovda faol ishtiroti uchun Elektrda po'lat erishish va Xalq iste'moli mollari ishlab chiqarish bo'linmalariga olti tomli o'zbek tilining izohli lug'ati kitoblar to'plami topshirildi.

Tadbir davomida Metallurgular madaniyat saroyining havaskorlari tomonidan bayram konserti dasturi tashkillashtirildi.

Bahodir RAHMONQUOV.

SUVLAR SIFATLI FILTRLANADI

Energetika bo'linmasining Filtrlash nasos stansiyasi uchastkasi jamoasi zimmalaridagi vazifalarni ko'ngildagidek bajarib kelmoqda. Uchastkaning besh nafar navbatchi mashinistlari kechayu kunduz kombinatning Navli prokat bo'linmasini, uning asosiy uskunalarini sovitish uchun uzluksiz sovuq suv bilan ta'minlab kelmoqda.

Bu uchastkada sanoat-yog'in suvlari ham qayta ishlanadi. Ya'ni ular filtrlar

orqali sifatli tozalanib, texnik suv quvuriga - kombinat ichki ehtiyoji uchun texnologiyalarga yo'naltiriladi.

Filtrlash nasos stansiyasi uchastkasing kombinat atrof-muhitining musafoligini ta'minlashida ham munosib hissasi bor. Ularning sa'y-harakatlari bilan kombinatning yangi hududlarida sug'oriluvchi yerlar yoz mavsumida uzluksiz suv bilan ta'minlandi.



TAASSUROTLARGA BOY BO'LDI

Hamkasblar bilan dam olish mehnat jamoalari uchun nafaqat birgalikda maroqli vaqt o'tkazish, balki xodimlarни rag'batlantirish va birlashtirishning samarali vositasidir. Bunday tadbirlar tufayli ish samaradorligi oshadi, tashkilot muhit yaxshilanadi va xodimlarning o'zaro munosabatlari yanada mustahkamlanadi.

Shu kabi omillarni inobatga olgan hol-da, "O'zmetkombinat" AJ Kasaba uyushmasi qo'mitasi tomonidan xodimlar uchun esda qolarli jamoaviy hordiq tashkillashtirishi a'nanaga aylangan.

Ana shunday tadbirdardan biri 19-20-oktabr kunlari tashkil etildi. Shu kunlari 40 nafar kombinat ishchi-xodim-

lari uchun bepul avtobus ajratilib Samarcand shahriga sayohat tashkil etildi. Ikki kunlik sayohat davomida metallurglar "Ochiq osmon ostidagi muzey" deb tan olingan "Registon maydoni"ning obidalari aylanishdi. Ko'hna va navqiron shaharning tarixiy obidalari, serjilo me'moriy manzaralari bilan yaqindan tanishdilar. Shuningdek, shaharning tarixiy qadamjolarini ziyorat qilishib, qiziqish bilan tomosha qilishdi. Ularning tarixi haqida ma'lumotga ega bo'ldilar.

Dam olish kunlari tashkil etilgan ushbu sayohat ishchi-xodimlar uchun munosib sovg'a bo'ldi.



OCHIQ SAYYOR SUD MAJLISIDA

SO'NGGI PUSHAYMON O'ZINGGA DUSHMAN

Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod shahar sudi 20-avgust kuni o'z binosida, ochiq sayyor sud majlisida Ma'mur Ilhomov va Sodirbek Xolboyevga (ism va familiyalar o'zgartirilgan) nisbatan to'plangan ma'muriy ishni ko'rib chiqdi.

Huquqbuzar Ma'mur Ilhomov tomonidan 2024-yil 22-iyul kuni soat 22:45larda "O'zmetkombinat" AJ hududida xizmat olib borayotgan vaqtida, sumkalarda umumiy narxi 195 721,50 so'm bo'lgan 18 kilogramm rangli metal parchalarni yashirin ravishda talon-taroj qilinayotgani aniqlangan.

Sud majlisida huquqbuzar tariqasida so'roq qilingan Ma'mur Ilhomov o'z aybiga iqrorlik bildirdi. Haqiqatdan ham u oldin "O'zmetkombinat" AJda qo'riqchi bo'lib ishlaganligi, 22-iyul kuni kombinat hududida joylashgan 12 va 13-sonli xizmat postlariga qoravullik qilganini bildirdi. Soat 22:30larda operator tomonidan unga chiqib ketayotgan vagonni kuzatib borish topshirig'i berildi. Uning sudda aytishicha vagonni kuzatib ketayotganida yo'ldan ichida metall chiqindilari bo'lgan 2 ta sumkani topib olgan. U bu sumkalarni

olib ketmoqchi bo'lgan. Shu atrofda qo'riqchilik qilayotgan Sodirbek Xolboyevga telefonda smena boshlig'i tusha olmaganligi, ularni kombinatga topshirish uchun biroz nariroqqacha ko'tarishib borishda yordam so'rigan.

Rangli metall parchalarini kombinatga sumkalarda ko'tarib olib ketayotganlarida smena boshlig'i kelib qolgan. Ularning qo'llaridagi sumkalarni ochib ko'rib, xodimlarini chaqirib, bayonnomma rasmiylashirishgan. Ma'mur Ilhomov qilgan ishidan chin ko'ngildan pushaymondaligi, boshqa bu holat takrorlanmasligini aytib suddan unga nisbatan yengillik berishni so'radi.

Sudda so'roq qilingan Sodirbek Xolboyev o'z aybiga iqror bo'lmaidi. Ilhomning harakatlarida noqo-



nuniy holat alomatlarini ko'rman-gani sababli unga yordam berganini, aniqlangan rangli metall parchalari noqonuniy olib chiqib ketilayotganidan umuman xabari bo'lmagani haqida ko'rsatuv berib, suddan unga yordam berishni so'radi.

Sud, ish hujjatlari bilan tanishib chiqib, huquqbuzar Ma'mur Ilhomovning aybi, uning sud majlisida bergan ko'rsatuvidan tashqari, ishda mavjud bo'lgan guvohlarning yozgan tushuntirish xatlari, hodisa sodir bo'lgan joyni ko'zdan kechirish va daliliy ashyoni olish bayonnomasi, ma'muriy bayonnomma hamda to'plangan ish hujjatlariga asosan to'liq o'z isbotini topgan deb hisobladi.

Sud ish hujjatlari bilan tanishib, Sodirbek Xolboyevning sud majlisida bergan ko'rsatuvini tinglab, daslabki surishtiruv organi tomonidan uning harakatlari O'zbekiston Respublikasi MjtKning 61-moddasi 1-qismi bilan noto'g'ri kvalifikatsiya qilingan, uning huquqbuzarlik sodir etganligini tasdiqlovchi dalillar aniqlanmagan va ish hujjatlariga biriktirilmagan deb hisobladi.

Ma'muriy huquqbuzarlik to'g'risi-



dagi ishning Sodirbek Xolboyevga nisbatan O'zbekiston Respublikasi MjtKning 61-moddasi 1-qismi bilan yuritilgan qismi O'zbekiston Respublikasi MjtKning 271-moddasi birinchi bandiga asosan tugatildi.

Huquqbuzar Ma'mur Ilhomov esa O'zbekiston Respublikasi MjtKning 61-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan huquqbuzarlikni sodir etganlikda aybli deb topildi. Unga shu moddaga asosan bazaviy hisoblash midorining 1 baravari - 340 000 so'm jarima jazosi qo'llandi.

Farhod ZOKIROV,
Jinoyat ishlari bo'yicha Bekobod
shahar sudi sud'yasi.


* MULOHAZA *

OXIRI AYANCHLI YAKUNLANADI

TANGANING IKKINCHI
TOMONI

Tezkorlik bilan rivojlanayotgan hayotimizni bugungi kunda internet va ijtimoiy tarmoqlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Qo'limizdagи telefonlar eng qulay dastyorga aylandi. Bir qarashda ularning ziyoni yo'qdek, barchabarchasi insonning foydasini ko'zlab ixtiro qilingandek ko'rinadi. Ammo tanganing ikkinchi tomoni bo'lgani kabi, bu mobil o'yinlarning ham inson hayotini butkul izdan chiqaradigan, hatto ularning o'limiga sababchi bo'ladigan elektron qimor kabi turlari bor.


Har qanday ijtimoiy tarmoqdan foydalamoqchi bo'lsangiz lip etib, "o'ynang va millionerga aylaning" deya o'zini reklama qilayotgan



kazino, ya'ni onlayn totalizator yoki boshqacha aytganda qimor o'yinlari chiqadi. Ular odamni o'ziga jalb qilaveradi.

Keyingi paytlarda ijtimoiy tarmoqlarda internetdagi tavakkalchilikka asoslangan qimor o'yinlarining ayanchli oqibatlari haqida turli xabarlar tarqalmoqda. Bu xabarlar asosan turli ko'ngilsizlik, ayniqsa, fojiali voqealardan iborat ekani sog'lam fikrli, hayotga ochiq ko'z bilan qaraydigan har bir kishini tashvishga soladi.

Aytish kerakki, tavakkalchilikka asoslangan o'yinlar insonda umidsizlik va nochorlik hissini keltirib chiqaradi. Totalizatorlarda katta mablag'ni yutqazib qo'yanlar duch kelayotgan moliyaviy qiyinchiliklar sabab ular tomonidan sodir etilayotgan huquqbuzarlik va jinoyatlar soni ko'paymoqda. Bundan tashqari yirik miqdordagi mablag'ni yutqazish, chorasizlik esa hatto o'z joniga qasd qilishgacha olib borishi mumkin.



ONLAYN QIMOR

Onlayn qimor – totalizator biror yo'nalish yoki o'yinda qaysidir tarafning boshqa, raqib tomoni ustidan zafar quchishini taxmin qilib, o'zi ishongan ma'lum bir shaxs yoki jamoaga pul tikishdir. Aniqrog'i, onlayn kazino, yana ham sodda lashtirsak – qimor.

Totalizator o'yinlari juda osonlik bilan ruhiy xastalikka aylanadi. Bu holat fan tilida "ludomaniya" deb nomlanadi. Inson onlayn pul tikish o'yinlarini o'ynay boshlagach, xuddi, narkotikka bog'lanib qolgan-dek pul tikishga o'rganib, irodasidan mahrum bo'ladi. Inson shu darajaga keladiki, qimor quliga aylanadi, o'zini boshqara olmay qoladi. Totalizatorning qurbanlari oilasi, kerak bo'lsa, yaqin insonlari va do'stlarining ham pulini onlayn o'yinlarga tikib yuboradi. Shu ham yetmagach, qarzlar, kreditlar ola boshlaydi va o'zini tubi yo'q jarga uloqtirganini bilmay qoladi.

Dinimizda insonlar halol mehnat qilib pul topishga buyurilgan. Birovni aldab, xiyonat qilib, mutahamlik yo'li bilan uning mulkiga ega bo'lish haromdir. Qimor esa aynan shunday yo'l bilan pul topishdir.

O'ZINI TO'XTATA
OLMAYDI

E'tibor bersak, turli totalizatorlar orqali pul topishga urinayotganlarning aksariyati yoshlardir.

Bir tanishimning o'g'li "1xbet.bet" totalizatorida qimor o'ynar ekan. U katta miqdorda pul yutib olardi. Dadasiga "Lasetti", o'ziga bahosi 100 ming dollardan ham qimmat bo'lgan mashina sotib oldi. Uylar ham oldi. Tadbirkorlik ishlarini ham boshlamoqchi bo'lib turganda katta miqdorda mablag' yutqazdi.

Natijada nafaqat o'zining mashinasi, uyi, dadasiga sovg'a qilgan avtomobilni ham sotadi. Tanish-bilishlaridan ham qarz oladi. Ularning ham hammasini yana yutqazadi.

Endi qarzlarini to'lay olmay odamlardan qochib yuribdi. Bir kishining qimorbozligi ortidan uning o'zi ham, atrofidagi odamlar ham jabr ko'rmoqda. Buning ustiga uning hayotida yolg'onchilik, firibgarlik kabi salbiy xislatlar odatiy holga aylanib qolgan.

Yoshlarning sog'lam hayotiga tajovuz qiladigan, ularni to'g'ri yo'ldan adashtiradigan bunday illatlardan farzandlarimizni himoya qilishimiz kerak. Har bir bolaning dunyoqarashida, ong-shuurida bu illatlarga qarshi immunitetni shakkantirish, ularga onlayn qimor va tavakkalchilikka asoslangan boshqa o'yinlar inson hayotini barbob qilishi, bularning oqibati afsus-nadomat, pushaymonlik va hatto fojeali tugashini tushuntirishimiz lozim. Shundagina bunday illatlarga chek qo'yiladi.

Ismat DIYOROV.

OLTI OY ISHLAMASDAN HAM TA'TIL OLSA BO'LADIMI?

Voyaga yetmagan ikkita farzandimni yolg'iz tarbiyalayman. Oilaviy sababga ko'ra ishga kirganimga 3 oy bo'lganda mehnat ta'tiliga chiqish uchun ariza yozdim. Biroq uzluksiz olti oy ishlaganiningizdan keyin ta'til olishingiz mumkin, deb arizamni qanoatlantirishmadi. Shu to'g'rimi?

K. Azizova.

Mehnat Kodeksining 227-moddasiga asosan birinchi ish yili uchun har yilgi mehnat ta'tilidan foydalanish huquqi xodimda u ushbu ish beruvchida uzluksiz ishlagan olti oy o'tganidan keyin yuzaga keladi.

Biroq agar xodim ariza yozsa ish beruvchi olti oy o'tmay xodimga ta'til berilishi shart bo'lgan holatlar ham bor. Yuqoridagi moddaning 3-qismiga ko'ra o'n to'rt yoshga to'limgan bitta yoki undan ortiq bolani (o'n olti yoshga to'limgan nogironligi bo'lgan bolani) tarbiyalayotgan shaxslarga (yolg'iz ota-onaga, shu jumladan beva ayollarga, beva erkaklarga, nikohdan ajralganlarga, muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarning xotinlariga, ota-onaning

ornini bosuvchi shaxslarga) olti oy muddatdan avval ham mehnat ta'tili berilishi mumkin. Agar farzandlaringizdan eng bo'limganda biri o'n to'rt yoshga to'limgan bo'lsa ham Sizga mehnat ta'tili berilishi shart.

Shuningdek, ayollarga - homiladorlik va tug'ish ta'tilidan oldin yoki undan keyin, o'n sakkiz yoshdan kichik bo'lgan shaxslarga, rezervga bo'shatilganidan keyin uch oydan kechiktirmay ishga kirgan muddatli harbiy xizmatni o'tagan sobiq harbiy xizmatchilarga,

I va II guruh nogironligi bo'lgan xodimlarga, ishdan ajralmagan holda ta'lim tashkilotlarda o'qiyotganlarga, o'zining har yilgi mehnat ta'tilini imtihonlar, sinovlar (zachyotlar) topshirish, bitiruv malakaviy ishlarini, magistrlik dissertatsiyalarini, kurs, laboratoriya ishlarini va boshqa o'quv ishlarini bajarish vaqtiga to'g'rilab olishni xohlaganlarga birinchi mehnat yillari uchun olti oy o'tmay ta'til beriladi.

Bundan tashqari jamoa kelishuvlarida, shuningdek jamoa shartnomasida yoxud ichki hujjatlarda belgilangan boshqa hollarda boshqa xodimlarga ham mehnat ta'tili ishga kirganidan olti oy bo'lmasdan berilishi mumkin.

Bir narsaga e'tibor berish lozimki yuqorida gi xodimlar olti oy o'tmay mehnat ta'tiliga ariza yozgan taqdirda ularning ta'tili to'liq davomiylikda va to'liq haq to'lagan holatda beriladi. Masalan, farzandingiz 14 yoshga to'limgan holda ishga kirganining holda bir hafta o'tgan dan so'ng yillik mehnat ta'tilini olish uchun ariza yozsangiz ham ish beruvchi Sizga arizangizni rad qilishga haqli emas. Bunday holatlarda xodimlarga to'liq mehnat ta'tili davomiyligida ta'til beriladi va to'liq ta'til puli to'lanadi.



ISH HAQI SAQLANADIMI?

Agar xodim majburiy malaka oshirishga yuborilsa, ish haqi va ustamalar saqlanib qolinadimi?

K. Karimboyev.

Mehnat Kodeksining 370-moddasi uchinchi qismiga ko'ra xodim ish beruvchi va xodim uchun majburiy bo'lgan qayta tayyorlashga yoki malaka oshirishga yuborilgan taqdirda, ish beruvchi qayta tayyorlash yoki malaka oshirish davrida xodimning ish joyini (lavozimini) va o'rtacha ish haqini saqlab qolishi shart.

Mana shu qoidaga binoan xodim majburiy malaka oshirishga jalgan qilinganda, uning o'rtacha oylik ish haqi to'lanadi. Bunda Mehnat Kodeksining 257-moddasiga asosan xodimning o'rtacha oylik ish haqi hisoblanadi.

Ushbu moddaning uchinchi qismiga ko'ra Mehnatga haq to'lashning vaqtbay tizimidagi xodimlarning o'rtacha ish haqi xodimning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladigan oydan oldingi oxirgi kalendar oy uchun tarif stavkasi (lavozim maoshi) miqdordan kelib chiqib, xodimning o'rtacha ish haqi saqlanib qoladigan oydan oldingi o'n ikki kalendar oy uchun ustamalar, mukofotlar va boshqa to'lovlari (ushbu Kodeks 248-moddasining uchinchi qismida nazarda tutilgan ish haqining qo'shimcha qismi) summasining o'n ikkidan bir qismi o'rtacha ish haqiga jamlangan holda belgilanadi.

Mana shu qoidaga ko'ra xodimning ustamalari uning o'rtacha ish haqini hisoblashda qo'shiladi.

SO'KINISH UCHUN JARIMA TO'LADIMI?

Jamoat joylarida, shu jumladan ishxonalarda ham so'kinganlik uchun qonunda jazo belgilanganmi?

B. Dilshodov.

O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning jamoat tartibiga tajovuz qiluvchi huquqbazarliklar uchun ma'muriy javobgarlik belgilangan. Unga asosan mayda bezorilik, ya'ni jamoat joylarida uyatli so'zlar bilan so'kinish, fuqarolarga haqoratomuz shilqimlik qilish hamda jamoat tartibini va fuqarolarning osoyishtaligini buzuvchi shu kabi boshqa xatti-harakatlarda ifodalangan jamiyatda yurish-turish qoidalari qasddan mensimaslik uchun jazo joralari qo'llaniladi.

Kodeksning Mayda bezorilik deb nomlan-



gan 183-moddasiga asosan bunday huquqbazarlik uchun Bazaviy hisoblash miqdorining 3 baravaridan 5 baravarigacha miqdorda (1 mln. 125 ming so'mdan 1 mln. 875 ming so'mgacha) jarima yoki 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq jazosi berilishi mumkin.

TIZIM 2025-YIL 1-MARTDAN ISHGA TUSHADI

O'zbekistonda 1-iyundan boshlab avtotransport vositalaridan chiqadigan zararli chiqindilarni kamaytirish maqsadida "Ekologik transport" tizimi bosqicha-bosqich joriy etilishi aytildi. Biroq nega bu tizim ishga tushmadи?

K. Ismoilov.

2024-yil 29-martda hukumatning qabul qilingan tegishli qaroriga muvofiq atmosfera havosining haqiqiy ekologik holatidan kelib chiqib, hududlar "toza" (yashil), "o'rta" (sariq) va "zararli" (qizil) ekologik zonalarga bo'linishi belgilangan. Bu qarorga asosan avtotransport vositalari diagnostika natijalariga ko'ra transport vositalariga ekologik stikerlar beriladi. Ekologik toifasi muayyan huduning ekologik zonasiga to'g'ri kelmaydigan transport vositalari uchun ekologik kompensatsiya, ayrim ekologik zonalarga kirishni cheklash yoki taqilash joriy etilishi ko'rsatib o'tilgan edi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ning 2024-yil 3-iyuldaggi 381-sonli "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga so-



halar va tarmoqlarda ekologik vaziyatni yaxshilashga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shinchalar kiritish to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, barcha toifalardagi avtomototransport vositalaridan ifloslantiruvchi moddalar tashlamalarining atmosfera havosiga zararli ta'siri bo'yicha yo'l qo'yiladigan normativlarga mosligini nazorat qilish bo'yicha "Ekologik transport" tizimini joriy qilish muddati 2025-yil 1-martga qadar uzaytirildi.

Savollarga huquqshunos Inomjon ESHONQULOV javob berdi.

OB-HAVO SOVUSHI BILAN QAYSI KASALLIKLAR AVJ OLADI?

Sovuq va nam havo qator surunkali va mavsumiy kasalliklar avj olishiga sabab bo'ladi. Buning asosiy sababi immunitet zaiflashishi bilan bog'liq. Chunki salqin va yomg'irli kunlar boshlangach, havoda namlik darajasi ortib, organizmning virus va infeksiyalarga qarshi kurashish qobiliyati pasayadi.

Bu mavsumda eng ko'p uchraydigan kasalliklar quyidagilar:

O'RVI, gripp, LOR xastaliklari, sistit, pielonefrit (buyrak yallig'lanishi), gerpes, surunkali bo'g'im kasalliklari, oshqozon va o'n ikki barmoqli ichak yarasi, mavsumiy allergiya, dermatoz, asab va ruhiy kasalliklar.

Masalan, kuz oyalarida immunitet susayishi hisobiga organizm nafaqat viruslar, hatto sovuq harorat ta'siriga ham yetarli darajada qarshilik ko'rsata olmasligi

mumkin.

Angina, faringit, tonsillit, laringit, traxoit, bronxit, rinit, sinusit, otit kabi LOR kasalliklari, O'RVI shu tariqa yuzaga keladi. O'z navbatida, shamollah bilan birga, ba'zan lablar atrofida girpes paydo bo'ladi.



IMMUNITET PASAYISHIGA OLIB KELUVCHI OMILLAR

Imunitet pasayishining sababi sovuq va nam havodan tashqari turmush tarzi va odatlarda bo'lishi mumkin. Shifokorlar quyidagi uning sabablarini ko'rsatishdi.

NOTO'G'RI OVQATLANISH. Qondagi antitanalar immunoglobulinlar oqsilidan tarkib topgan, ularning me'yorda ishlab chiqarilishi uchun taomnomada go'sht, tuxum, baliq, sut mahsulotlari, dukkanakli o'simliklar yetarlicha bo'lishi kerak.

SURUNKALI STRESS. Asabiy charchoq paydo bo'lganda immunitetni himoya qilish faoliyatini tartibga soluvchi gormonal tizim ishdan chiqadi, natijada immunitet zaiflashadi.

SURUNKALI UYQUSIZLIK.

ZARARLI ODATLAR. Chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, semirish, kam harakat hayot tarzni.

TASHQI MUHIT. Zararli ishlab chiqarish korxonalarini, havoning ifloslanishi, radiatsiya.

YASHASH JOYIDAGI HAVODA NAMLIKNING YETISHMASLIGI. Qishda, isitish qurilmalari ishlagan mavsumda xona ichidagi havo juda quruq bo'ladi. Bu shilliq parda va teri qurishiga sabab bo'ladi va immunitetni zaiflashadir. Quruq havo gaplashganda, yo'talganda tarqaladigan virus va mikroorganizmlarning zarralarini uzoq vaqt davomida saqlaydi.

PASAYGAN IMMUNITET BELGILARI

Tez-tez kasallanish – yil davomida 3-4 marta shamollah.

Doimiy xasta bo'lish – agar immunitet mustahkam bo'lsa, har qanday shamollah tezda o'tib ketadi. Organizm keskin himoya choralarini qo'llab, virus va bakteriyalarini tez yengadi.

Ichaklar holati – disbakterioz belgilari – qabziyat va diareya almashib turishi, qorin damlanishi, tez-tez ko'ngil aynashi.

Teri – tez-tez qaytalanuvchi toshma, yiringli yara, uchuq toshib turishi.

Umumi ahvol – holsizlik, quvvatsizlik,



mehnat unumdorligining pasayishi.

Allergik kasalliklar.

Yetarlicha uqlash bilan ham uyquga to'ymaslik.

Soch va tiroqlarning mo'rtlashishi.

Limfa bezlarining kattalashishi.

QANDAY QILIB IMMUNITETNI MUSTAHKAMLASH MUMKIN?

Shifokorlarning immunitetni oshirish uchun bergen tavsiyalarini hamma bilishi va amal qiliishi foydadan holi bo'lmaydi.

RATSIONGA VITAMINLAR QO'SHISH

Immunitetni mustahkamlovchi maxsus vitaminlar va minerallarni kapsula yoki qo'shinchalar sifatida qabul qilish mumkin, ammo oziq-ovqat tarkibidagi mikroelementlar organizmga ko'd fonda keltiradi.



Sut, go'sht mahsulotlari, sabzavot va mevalar, dukkanakli va yong'oqlar immunitetni mustahkamlovchi ozuqa moddalariga to'la. C vitaminini bu masalada, ayniqsa, samarali hisoblanadi, shuning uchun qishda va mavsumdan tashqari citrus mevalari, ismalloq, kivi va klyukva sog'lom ovqatlanishni qo'llab-quvvatlaydi. Shuni unutmaslik kerakki, sog'lom jigar tabiiy detoksifikatsiya jarayonini ta'minlaydi, unga karam, brokkoli kabi sabzavotlar yordam beradi. Immunitet tizimini mustahkamlovchi boshqa mahsulotlar qatorida parhezshunoslar yogurt, bulg'or qalampiri, tovuq go'shti, asal, sarimsoq, zanjabil, zarchavani tavsiya qiladi. Shuningdek, anor, olma, limon, qatiq, piyoz, qovoq, burukli karami, qora sedanani muntaza tanavvul qilish koni foyda.

SHIFOBAXSH DAMLAMALAR ICHISH

Dorivor giyoh, rezavor va ko'katlar nafaqat



Salqin havo ta'sirida kuchayadigan yana bir xastalik sistitdir. Chunki quviq va peshob yo'llari infeksiyasi aynan kuzda avj oladi. Xastalik o'z vaqtida davolanmasa, pielonefrit (buyrak yallig'lanishi) kelib chiqishi xavfi oshadi.

Mavsum o'zgarishi, organizmda vitaminlar yetishmovchiligi, endokrin buzilishlar, noto'g'ri ovqatlanish va stress kabi omillar tufayli oshqozon yarasi bezovta qilishi ehti-moli bor.

Sovuq va nam havo bo'g'im kasalliklari qo'zg'алишига ham sabab bo'lishi mumkin.

Albatta, buning oldini olsa bo'ladi! Eng samarali chora – immunitetni mustahkamlash.

Immunitet – lotinchada "ozodlik" ma'nosi bildiradi. U organizmni bakteriya va viruslar, zamburug'lardan himoya qiladi, ularga qarshilik ko'rsatadi.

viruslarga qarshи kurashishga yordam beradi, balki tuzalishni ham tezlashtiradi. O'simlik choylari, mevali ichimliklar va kompotlar immunitetni mustahkamlashdan tashqari viruslardan ham himoya qiladi. Bundan tashqari, chereda (ittikanak), moychechak, ko'k choy, zanjabil, quritilgan yerba mate barglari, qizil miya ildizi damlamalari immunitetni ko'tarishda qo'l keladi.

SPORT BILAN SHUG'ULLANISH

Muntazam jismoniy mashqlar immunitet tizimiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi ilmiy jihatdan isbotlangan. Jismoniy mashqlar begona yoki shikastlangan hujayralarni yo'q qilish orqali organizmni infeksiyalardan himoya qiluvchi T-limfotsitlarni safarbar qiladi.

UYQU SIFATINI OSHIRISH

Uyquning yetishmasligi ham T-hujayralarining faolligini pasaytiradi, immunitetni va emlash vaksinalarining ta'sirini zaiflashadir. Belgilangan 7-8 soat uxlashga harakat qilish, bir vaqtda yotishga odatlanish tavsiya etiladi.

QUYOSHDA YURISH

D vitaminini sog'lom immunitet tizimi uchun zarurdir, chunki u organizmga antitola ishlab chiqarishga yordam beradi. Uning yetishmasligi olimlar tomonidan nafas olish kasalliklarining asosiy sabablaridan biri sifatida tan olingan. Har kuni 10-15 daqiqalik yurish immunitetni mustahkamlash va viruslardan himoya qilish uchun zarur bo'lgan me'yorni ta'minlaydi.

KO'P SUYUQLIK ICHISH

Suv iste'molining standart darajasi kuniga 1,5-2 litrni tashkil qiladi. Toza ichimlik suvining afzalliklari haqida hamma biladi, u organizmni namlik bilan ta'minlaydi, tozalaydi, qo'llab-quvvatlaydi va umuman, hech qanday zarari yo'q. Bundan tashqari, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish yaxshi natija bermasligini hamma biladi, u immunitet tizimining ishiga putur yetkazadi.

YOMON ODATLARDAN VOZ KECHISH

Chekish, spirtli ichimliklarni iste'mol qilish, kam harakat organizmda ateroskleroz, nafas yo'llari yallig'lanishi, miyada qon aylanishi kamayishiga olib keladi. Bular hammasi immun tizimini kuchsizlantiradi.

HAYOTGA IJOBIY MUNOSABAT

Agar hayot odamga quvonch va zavq keltirmasa, o'z-o'zini yo'q qilishning biologik mexanizmlari ishga tushadi. Hayotga ijobiy qarash va har qanday yomon vaziyatda ham tushkunlikka tushmaslikka harakat qilish kerak. Bo'lib o'tayotgan voqealarga munosabatni ijobiyga o'zgartirishda psixolog bilan maslahatlashish mumkin.

FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA* FUTBOL: SUPERLIGA*



O'YINGA MOS NATIJA...

19-turda "Paxtakor"ni 3:2 hisobida yenggan "Metallurg"dan keyingi turda muxlislar yana g'alaba kutishgan edi. Amaldagi chempionga qarshi uchrashuvda qayd etilgan natija va o'yin "Metallurg" muxlislari qalbini iltigan hamda jamoa musobaqa jadvalida oxirgi o'rinda borayotgan bo'lsada uning kelajagiga umid uchqunlarini alangalatgan edi. Afsuski, umid oqlanmadni.

Superliganing 20-tur doirasida bekobodliklar singari xavfli mintaqada borayotgan "Qizilqum" bilan Qarshida kechgan bahsda esa hali bartaraf etilishi lozim bo'lgan muammolar ko'p ekanligi oydinlashdi. Jamoa raqib tomonidan 2-daqiqada o'rta tashlangan savolga bir yarim soat davomida javob topolmagani ancha xavotirli. Olti ochkolik o'yinda boy berilgan qimmatli ochkolar qadri kuz oxirida qimmatga tushmasa bo'lgani...

Xuddi "Paxtakor" bilan o'yindagi singari "Metallurg" yana tezkor gol o'tkazib yubordi. Kerim Palichning jarima maydoni yaqinidagi pala partish harakati va zarurati bo'limgan paytda qoida buzishi o'yindagi yagona golga olib keldi. "Metallurg" standart vaziyat qurbaniga aylandi. Jarimadan uzatilgan to'pni himoyachilarimiz ta'qibidan xoli qolgan raqibning bo'ychan hujumchisi Elguja Lobjanidze Dragan Cheran singari xotirjam boshi bilan urib darvozamiz to'riga tushirdi. Biz esa "sherlar"ga qarshi o'yindagi kabi yana ta'qibchi roliga tushib qoldik va bu chohdan chiqib keta olmadik. Bunda jamoa o'yinchilaridagi charchoq, boshlang'ich tarkibdagi majburiy o'zgarishlar, futbolchilarning psixologiyasi, yaratilgan vaziyatlardan foydalana olmaslik va hokazo muammolar sabab bo'ldi.

"Metallurg" tezkor golga 15-daqiqadayoq tezkor javob qaytarishi mumkin edi. Biroq jamoanining legioner hujumchisi Balsha Sekulich ikki uch metrlar olsislikdan to'pni darvozaga to'g'rilab qo'ya olmadi. Bu butun birinchi taym mobaynida ega bo'lgan yagona gollik imkoniyatimiz edi. Ikkinci bo'linda esa bosimni oshirdik. Vaziyatlar soni ham ko'paydi. Jamoa sardori Zabixillo O'rinoev sheriqlarini ortidan ergashtirishga urindi. O'zi xavfli zarbalar berdi. Biroq shu kuni jamoanining omadi chopmadi. Buning omillari esa murabbiylar shtabi tomonidan jiddiy tahlil etilishi kerak. G'alvirni suvdan ko'taradigan payt keldi. Bu yog'iga har bitta uchrashuv hayot-mamot "jangi"ga aylanmas ekan, qiya ochilib turgan Pro liga eshiklaridan o'pqonga tushib ketish xavfi ortib boraveradi...

AYOLLAR BIRINCHI LIGASI

BIRIDA YAXSHI, BOSHQASIDA AKSI

Futbol bo'yicha ayollar birinchi ligasi o'yinlarida "Metallurg - W" barqaror ishtiroy etolmayapti. Jamoa bir qator o'yinlarda maydonga tushib, birida yaxshi, boshqasida aksi o'yinlar ko'rsatmoqda.

12-tur o'yinlarida "Metallurg - W" safarda "Surxon - W" jamoasi bilan kuch sinashi. Bu o'yinda maydon egalari 4:2 hisobida g'alaba qozonishdi. Shu o'yindan so'ng jamoa ketma ket uch marta g'alaba qozondi. 13-turda "Sho'rtan - W" - 3:1, safar o'yinlarida 14-turda "Mash'al - W" 1:5, 15-turda

"Sho'rtan - W" 0:8 yirik hisoblarida taslim qilindi. Afsuski, jamoa 16-turda imkoniyatni boy berdi. Mavsumning oxirgi o'yinida esa "Mash'al - W" 8:1 hisobida mag'lub etildi.

Birinchi ligada mavsum yakuni bo'yicha "Metallurg - W" 7 g'alabaga erishdi. 1 o'yini durang va 9 uchrashuvni mag'lubiyat bilan yakunladi. Bu o'yinlarda raqiblari darvozalariga 53 ta gol urib, o'z darvozasidan 25 bor to'p olib chiqdi. 22 ochko jamg'argan jamoa musobaqa jadvalida 8 ta jamoa orasida 6-o'rinni egalladi.

HISOB OCHILMADI

Superliganing 21-turida 19-oktabr kuni O'zbekiston kubogi - 2024 sohibi - "Andijon" futbol klubini Olmaliq shahrida qabul qilgan Bekobodning "Metallurg" jamoasi navbatdagi nursiz durangga imzo chekdi - 0:0.

Bu natija esa Superligada mavqeini saqlab qolishga harakat qilayotgan jamoamizning ahvolini yanada og'irlashtirdi. Oy boshida kubokni boshi uzra baland ko'targan "Andijon"ga qarshi bahsni bekobodliklar tezkor hujumlar bilan boshlagandi. Ammo jamoanining shashti birinchi taymning o'rtalarigacha yetdi.

O'yin avvalidagi tazyiqni bartaraf etgan vodiyliliklar asta-sekin tashabbusni ham o'z

qo'liga olishga urinib ko'rdi. Ayniqsa, standart vaziyatlardan foydalanish borasida Superliga yetakchilaridan biri sanaluvchi andijonliklar taymlar oxirini ancha ko'tarinki kayfiyatda o'tkazdi. Ayrim holatlarda "Metallurg" himoya chizig'i va ayniqsa, darvozabon chinakamiga ter to'kishga majbur bo'ldi. Birinchi taymda hududiy ustunlik bekobodliklar tomonida bo'ldi.

Ikkinci taymni esa andijonliklar ishonchli o'tkazdi. Ammo har ikkala jamoa hujumdan ko'ra o'z darvozasi dahlsizligini ko'proq o'yaganligi bois ham muxlislar bu o'yinda gol ko'rismadi.



IMKONIYAT BOY BERILDI

26-oktabr kuni Superliganing 22-turini safarda "Navbahor" jamoasiga qarshi o'tkazgan Bekobodning "Metallurg" jamoasi mavsumdagi navbatdagi mag'lubiyatini qabul qilib oldi. Bugalar qiblib deyarli bitta taym maydonda bir kishi kam bo'lib o'ynasa-da, uchrashuvni ijobjiy natija bilan yakunlashni futbolchilarimiz eplay olishmadi.

Dastlabki daqiqalardanoq jangovor kayfiyatda maydonga tushgan mezbonlar ketma-ket xavfli hujumlari bilan darvozamiz sari xavf solib turdi. Birinchi taymning o'zida maydon egalarida kamida ikkita yuz foizlik gollik imkoniyatlar bo'ldi. Taym so'ngiga kelganda Abror Ismoilovning maydondan chetlatilishi "Metallurg"ning ijobjiy natija

uchun imkoniyatlarini oshirgandi. Afsuski, son jihatidan ko'p bo'lib harakat qilgan bekobodliklar hisobni ochish uchun bir qator vaziyatlardan foydalana olishmadi. Natijada sen gol urmasang senga urishadi degan ibora yana o'z isbotini topdi. 79-daqiqada namanganliklar standart vaziyatdan unumli foydalanishdi. Jarimadan uzatib berilgan to'pni Yovan Jokich boshi bilan urib darvoza to'riga tushirdi. "Metallurg"ning mag'lubiyatdan qutilib qolish yo'lida jon kuydirishlari esa samara bermadi...

23-turda "Metallurg" 31-oktabr kuni OKMKga qarshi yashil maydonga tushadi.

Komiljon JUMAYEV.


ISLOM KUMUSH MEDAL SOHIBI

Yaqinda Kiprning Larnaka shahrida sambo bo'yicha yoshlari, o'smirlar va kadetlar o'rtasidagi jahon championati bo'lib o'tdi. Bahslar umumiy hisobda 55 ta vazn toifasida o'tkazildi.

O'zbekiston terma jamoasi bellashuvlarda bosh murabbiy Roman Shakirov, murabbiylar Gulpona Ro'ziyeva, Dmitriy Kamenskiy boshchiligidagi ishtiroy etishdi.

Hamyurtimiz Islom Adilov mazkur jahon championatida bosh hakam sifatida ishladi. Shuningdek, Rustam Adilov va Oybek Fayzibyoev hakam sifatida faoliyat olib borishdi.

Ushbu nufuzli musobaqada hamshaharimiz iste'dodli yosh sportchi Islom Abduzokirov 71 kilogramm vazn toifasida munosib ishtiroy etib, kumush medalni qo'lga kiritdi.



QAYTAR DUNYO, BU...

- Ha, do'stim, nega asabiylashasan, tinchlikmi?

- Ko'rmaysanmi, papasha bilan mamashkamni? Qiziq, ularga barcha sharoitni keragidan ortig'i bilan yaratib qo'ygan bo'lsam. Ularga xizmatchi yollaganman. Qishloqda yashashsa-da, biron-bir og'ir ish qildirmayman: kir yuvishmaydi, ovqat qilishmaydi, ikkala-sida ham eng so'nggi rusumdag'i qo'l telefon. Qiziq ularni tushunmayman, nuqul menga qo'ng'iroq qilib, biz seni, nabiralarimizni sog'indik, qachon kelasizlar, deb hol-jonimga qo'yishmaydi. Nima, men bu yerda o'ynab yuribmanmi? Axir, mening ham dam olish kuni-lari rejalashtirgan muhim ishlarim bo'lishi mumkin-ku. Yo'q, men ularni tushunolmayman. Xo'sh, yana nima kerak, o'zi, ularga?!

Oradan 30 yil o'tib yana o'sha eski do'stlar:

- Ha, qadrdonim, nega xomushsan? Biron joying bezovta qilmayaptimi, ishqilib?

- Ko'rmaysanmi, bu farzandlar-ni, o'zlar bilan o'zlar ovora. Ularga qo'ng'iroq qilib, nega kelmayapsizlar, sizlarni sog'indim-ku desam, otajon, sizga nima yetishmayapti? Yeganingiz oldingizda, yemaganingiz ortingiza bo'lsa? Xizmatingizga maxsus kishi yollagan bo'lsak. Katta hovlida o'zingiz o'zingizbek bo'lsangiz, - deyishadi, zang'arlar. - Axir, yolg'izlikdan bu hovli meni yutib yuboray deyapti-ku! Axir, bularning barchasi, farzan-du nabiralarimning bir daqiqalik shirin diydoriga, ular bilan muloqot gashtiga yetmaydi-ku. Nahotki, ular shu oddiy narsani bilishmaydi?!

Xulosa. Farzandlar va nabiralar davrasidagina baxt to'kis bo'lar ekan.

"Farzandnoma" kitobidan.

HIKMATLAR XAZINASIDAN

Ko'zlariningizni samoga qaratsangiz – ularda osmon aks etar, botqoqqa qaratsangiz – botqoq aks etar. Ko'zimizni qaerga qaratishimiz esa bizning irodamiz va xohishimizga bog'liqdir.

Konfutsiy.

Olamdagi eng boy odam – o'z quvonchi uchun eng kam mablag' sarflaydigan odamdir.

Genri David.

Yaxshilik shunday ne'matki – uni hatto ko'zi ojizlar ko'ra oladilar, qulog'i og'irlar eshitada oladilar.

Mark Tven.

Odamning o'zi istamasa, hech qanday o'git-nasi-hatlar unga to'g'ri yo'l ko'satolmaydi.

R. Rollan

BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan O'zbekiston metallurgiya zavodi qaysi yili va nima munosabati bilan qanday mukofot olgan?

Bekobodlik metallurglardan bir kishi "Fidokorona xizmatlari uchun" ordeni bilan taqdirlangan. Uning kimligini bilasizmi?

Uni pishirib ham, qovurib ham, qaynatib ham bo'lmaydi va hattoki muzlatgichga ham solib bo'lmaydi. Shunga qaramay uni butun dunyo iste'mol qiladi.

Nimaga super yelim o'zining idishiga yopishib qolmaydi?

Ularga erkaklar ham, ayollar ham to'ymaydi. Lekin ularni yeb ham bo'lmaydi, ichib ham bo'lmaydi. Ular nima?

Javoblarni gazetaning keyingi sonidan bilib olasiz.

Gazetaning o'tgan sonidagi savollarning javoblari.

1962-yil turdosh korxonalar ichida birinchilardan bo'lib marten sexida eritilgan po'latni quyish mashinasi (UNRS) foydalanshga topshirilgan.

1988-yilda Anatoliy Mixaylovich Anoxin muqobillik asosida zavod direktori etib saylandi.

"Kamera" so'zi asli arabcha "Qamara" – oy ya'ni, quyosh nurlarini qaytaruvchi jism so'zidan kelib chiqqan.

Qizning ismi Anora. Anor – meva nomi. Nor – hayvonning nomi (tuya). Or – insonga kerak narsa. R tovushi hayvonlarga yoqmaydi.

Katta yoshdag'i inson tanasidagi kapillyar tomirlarning uzunligi 100 ming km.ni tashkil qiladi. Bu yer sharini ikki marta aylanib chiqish degani.

KELING, BIR KULISHAYLIK!

Sudya jabrlanuvchidan so'rabi:

- Sizni tilla zanjiringizni o'g'irlab qochgan shaxsni taniy olasizmi?

Jabrlanuvchi:

- O'g'rining advokati himoya nutqidan keyin, tilla zanjirim bor-yo'qligiga ham shubhalanib goldim, o'rtoq sudyalar...



Qo'shnik Hamdam boboning aytishicha, u Titanikni o'z ko'zlar bilan ko'rgan ekan.

Boshidanoq hammani kema cho'kib ketishi haqida ogohlan-tiribdi. Hech kim e'tibor ber-mabdi.

Ammo, bobo baribir kema cho'kib, yo'lovchilarning katta qismi halok bo'lishini qaya-ta-qayta aytaveribdi...

Axiyri, odamlar bezor bo'lib, boboni kinoteatrдан haydar chiqarib yuborishibdi.